

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ



O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOYIY GAZETASI

2025-yil avgust № 8 (147) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



Asrlarning yelkasida izim bor,
Ulug' tog'lar siymosida o'zim bor.
Yetti iqlim ziyosiga nur qo'shgan –
Bobolardan meros yorug' yuzim bor.

Notinch dunyo oqidan ko'p qorasi,
Otashkesim yer-u osmon orasi.
Tongda omon uyg'onmoqqa intizor –
Sarson yashar qancha odam bolasi.

Birlashaylik, qo'l ber, do'sti jahonim –
Keng jahonga gul uzatgan bo'stonim.
Ming bor shukur osoyishta baxt uchun,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

Bu kunlarni birov sovg'a qilmagan,
Yangi O'zbek osmonlardan kelmagan.
Shahidlarim, jadidlarim tilagan –
Bekor Yangi O'zbekiston kelmagan.

Niyatidek pokizadir ertasi,
Islohotlar – ezgulikning mevasi.
“Farzandlarim, yoningizda men bor” deb –
Bir yurt qurar bugun yurtning Egasi.

Birlashaylik, qo'l ber do'sti jahonim,
Keng jahonga qo'l uzatgan bo'stonim.
Ming bor shukur osoyishta baxt uchun,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

Ushalmoqda orzularim ro'yobi,
Yurti asrash har yurakning xitobi.
O'tmish, bugun ham kelajak tutashgan –
Yozilmoqda yangi tarix kitobi.

Toki uyg'oq, sobit imon bor Vatan
Kim seni der – baxti ustuvor Vatan.
Ilm-u ziyo, ma'rifatning beshigi –
Yuraklarda mangu iftixor Vatan.



Sayyora TO'YCHIYEVA,
falsafa fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Birlashaylik, qo'l ber do'sti jahonim,
Keng jahonga qo'l uzatgan bo'stonim.
Ming bor shukur osoyishta baxt uchun –
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

JADIDLAR FAOLIYATIDA SAN'ATNING O'RNI

Bugungi
sonda:

G'ulom Zafariy ham qisqa umri mobaynida serqirra ijod namunalari bilan xalqimiz yuragidan joy olgan. Uning bolalar dramaturgiyasi shakllanishiga asos solganligi, kelajakda yosh tomoshabinlar teatri yaratilishiga turtki berdi.

2

MUMTOZ ADABIYOTDA AYOL TIMSOLI

Adabiyot – timsol va ramzlarga asoslanadi. Biron narsaning aynan o'zini keltirgandan ko'ra, uni tegishli belgi-xususiyatlar orqali ifodalash kitobxonga zavq-shavq, ko'tarinki kayfiyat, ruhiy xotirjamlik beradi. Mumtoz adabiyotda Allohni ayol obrazi orqali ifodalash an'anaga aylangan. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti shu tamoyilga asoslanadi.

3

IJTIMOY AXLOQ VA BUGUNGI MEDIAOLAM

Chingiz Aytmatov shunday yozadi: “Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojidadir”.

4

MADANIYAT MUASSASALARINI BOSHQARISHDA innovatsion yondashuvlar

Madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar quyidagi natijalarni bermogda: muassasalarning raqobatbardoshligi oshmogda, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmogda, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmogda, milliy madaniyat va san'at jahon miqyosida keng targ'ib qilinmogda.

5



Jadidlar faoliyatida SAN'ATNING O'RNINI

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisiga Murojaatnomasida aytgandek, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini shuncha ko'p anglab yetadi.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida teatr san'ati jadidlar sa'y-harakatlari orqali rivojlandi. Jadidlar tarix maydoniga ma'rifatparvarlik, milliy ozodlik harakatlari g'oyalari bilan kirib keldilar. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa, jadidchilik deb nomlandi. "Jadid" atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g'oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanilgan.

Xalqning qalbini uyg'otish, ma'naviyatini shakllantirish, yoshlar savodxonligini oshirish kabi maqsadlarga erishish uchun ular teatr va ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lini tanladilar. Avvalo ta'lim sohasini isloh qilib maktab, madrasa, gazeta, jurnal, keyinchalik teatr san'atini targ'ib qilish yo'lidan bordilar. Yangi usul maktabi asoschilari qatorida Mahmudxo'ja Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori, G'ulom Zafariy, Fayzulla Xo'jayev, Mannon Uyg'ur kabi fidoyilar yetakchilik qildilar.

Darhaqiqat, teatr san'ati qudratli tarbiya vositasidir. Ayniqsa, bolalar va yoshlar tarbiyasida uning o'rnini beqiyos. Chunki teatr tomoshabiniga yuzma-yuz turgan holda uning his-tuyg'usi, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek milliy teatri san'ati vujudga kelgandan buyon ma'rifat markaziga aylandi. Shu kunga qadar necha buyuk san'at darg'alari teatr sahnalarida tomoshabinlar uchun ko'zgu vazifasini o'tadilar. Zero, inson o'z nuqsonlarini ko'zgudagina to'liq anglab yetishi mumkin. Yangi o'zbek teatrlarini yaratish tilagi ko'plab jadidlarning ko'nglida avvaldan mavjud edi.

Tatar, Ozarbayjon xalqlarida bunday teatr anchadan buyon bor bo'lib, ular Turkistonga ham gastrolga kelishar, o'zbek ziyolilarida teatrga qiziqishni oshirib, yangi usuldagi teatrlar yaratish ishtiyoqini qo'zg'ar edi. Bu haqda G'ulom Zafariy shunday deydi: "1912-yildan boshlab yoshlar orasida teatr havaskorlari ko'rinishida boshlagan edi. Bu havaskorlar yurtimizdagi rus, tatar, ozarbayjonlik og'aynilarimizning Yevropa usulida o'ynagan teatrlaridan ibrat oldilar".

Jadidlarimiz teatr san'atiga nafaqat san'at balki, ta'lim jarayoni sifatida qarashlari, spektakl orqali inson ruhiyatiga ta'sir qilish haqidagi fikrlari Rossiya teatrshunoslari bilan aynan o'xshashdir.

Milliy teatr san'atimizning asoschisi buyuk taraqqiyparvar Mahmudxo'ja Behbudiy teatr ibratxona ekanligini ta'kidlar ekan, uni maktab darajasiga tenglashtiradi, insonning ko'zi o'z bo'lsa, eshitib ibrat olishini, qulog'i eshitmasa ko'rib, anglab yetishi mumkinligini, voqeani eshitgandan ko'ra jonli ravishda o'sha yerda tomosha qilish insonga o'zgacha ta'sir o'tkazishini hamda tomoshabin teatrdan ma'naviy ozuqa va estetik zavq olishini keltirib o'tadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov esa "Turon" teatr truppasi ochilishida – sahna biz insonlarga yaxshi va yomon kimsalarni bilib olishimizga yordam berishini, bu oddiy tomosha emas balki ulkan tarbiya maskani ekanligini, unga muqaddas dargoh sifatida nazar solishimiz kerakligini juda nozik did bilan tasvirlab berar ekan, teatrlar maktab bilan qiyoslaydi.

Cho'lpon esa, maqolalarida teatrdagi o'zgarishlarni ketma-ket matbuotda yoritib turdi. Uning "Iblis" nomli maqolasida teatrga yosh ziyolilar ham tashrif buyurayotgani, spektakllarning badiiy-estetik qiymati oshganligini ta'kidlab o'tdi. "Yosh ziyolilar" – deganda, Cho'lpon mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan, rus-tuzem maktablarini bitirgan, rus tilini biladigan o'zlarini "ortiq madaniy" deb hisoblaydigan yoshlarni nazarda tutgan. "Ortiq madaniy" yoshlarni ham e'tiborini tortgan Husayin Jovindning "Iblis" fojiasi edi.

"Xalq to'la unum yaxshi edi: hatto joy bo'lmasdan qaytib ketganlar ham ko'p bo'lg'on. Shu yerda kichkinagina bir narsa yozib o'tishni kerak bildim. Bu tomoshaga "yoshlar" deb atalg'on "millatparvar"larning ham ko'blari kelgan edilar. Hatto yangi shahar teatrlaridan sira qolmayturg'on ba'zi bir "ortiq madaniy" yoshlarimiz ham shu tomoshada bor edilar... Demak, bular ham bu yo'li o'z sahnalariga qiziqqanlar ekan... ko'z tegmasin!", – deb Cho'lpon maqolasida o'sha davr yoshlarini teatrga bo'lgan e'tiborini yoritadi. Darhaqiqat, yoshlarimiz rus-tuzem maktablarida tahsil olayotgan, o'z milliy mafkurasidan yiroqlashayotgan, hattoki, o'z tilida to'g'ri so'zlasha olmaydigan da-

rajaga yetib borayotgan bir davrda o'z milliy qadriyatlarimizni targ'ib etuvchi sahna asarlari xalqimiz uchun juda zarur edi.

Abdulla Avloniy ham jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. U o'zining zamondosh, izdoshlari kabi yangi usul maktablarini ochib, ularga o'zi mudarrislik qildi va darsliklar yozdi. Uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" singari darslik, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plamlari, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari (1913-yil) mashhur bo'ldi. 1895-yildan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abulfayz", "Indamas" taxalluslari bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratdi. Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqirar edi.

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy xalq vakillaridan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazetalarni tashkil etadi. U nafaqat maktab darsliklari, shuning bilan bir qatorda "Advokatlik osonmi?", "Ikki muhabbat", "To'y", "S'ezd", "Layli va Majnun", "O'liklar" kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarini fosh etadi. Abdulla Avloniyning bir vaqtning o'zida ham teatr uchun dramatik asarlar, ham maktab uchun darsliklar yaratishga intilishidan O'zbekistonda teatr va maktab o'rtasidagi hamkorlik masalalari aynan jadidchilik harakatlari ostida vujudga kelganini taxmin qilish mumkin.

Jadid adabiyoti, san'ati namoyondalari orasida shoir, dramaturg, rejissyor, pedagog, musiqashunos va zamondoshlari ta'biri bilan aytganda, kompozitor G'ulom Zafariyning o'rnini alohida bo'lgan. Milliy bolalar repertuarini Mannon Uyg'ur va G'ulom Zafariyning badiiy hamkorligi shakllantirdi. Ularning teatrga bo'lgan muhabbati, bolalar dramaturgiyasi ustida tinimsiz izlanishga, yosh tomoshabinlar uchun yangiliklar yaratishga, dolzarb va mazmunli mavzular ustida ishlashga

Xulosa, qilib aytganda, XX asr boshlarida jadid bobolarimiz ta'lim va tarbiya sohasida islohotlar boshlab berishdi, desak adashmaymiz. Ularning bir vaqtning o'zida maorif, san'at sohasiga, nashriyotga qo'l urganligidan anglash mumkinki, bu sohalarining barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tinimsiz mehnati o'zbek xalq ma'naviyatining yuksalishiga, teatr san'atining professional darajaga ko'tarilishiga ulkan hissa qo'shgan. Bu davrda juda ko'plab nomoyondalarimiz kelajak avlod uchun kurash olib borishgan. Shu insonlar qatorida G'ulom Zafariy ham qisqa umri mobaynida serqirra irod namunalari bilan xalqimiz yuragidan joy olgan. Uning bolalar dramaturgiyasi shakllanishiga asos solganligi, kelajakda yosh tomoshabinlar teatri yaratilishiga turtki berdi. Bugun teatr uchun yoziladigan pyesalarning ahamiyati oshishiga, yoshlarning teatr ostonasiga kelishiga, G'ulom Zafariyning ma'naviyati va badiiy didi asos bo'lmoqda.



Gulnoza SHAVKATOVA,
san'atshunoslik fanlari
bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

turtki berdi. Bu hamkorlik natijalari bolalar teatri, uning tanqidchiligi, sahna madaniyati, qolaversa, milliy adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallaydi.

Erkin Ismoilovning ta'kidlashicha, 1919-yilning oktabr oyida o'zbek teatrida rejissyor Mannon Uyg'ur rahbarligida "Bolalar teatri" repertuari dunyoga kelgan. Ma'rifatni avvalo murg'ak qalblardan boshlash kerakligini, yangi unib o'sib kelayotgan nihol parvarishini boshidanoq to'g'ri yo'naltirish lozimligini anglab yetgan jadid bobolarimiz, bolalar uchun pyesalar yaratishga kirishdilar. Mannon Uyg'ur bolalar adabiyotiga doir "Turkiston tabibi" G'ulom Zafariy esa "Tilak", "Rahmli shogird", "Yomon o'g'il", "Erk bolalari" kabi asarlar yaratdilar. Bu sahna asarlari bir necha bor sahnalashtirilib, teatr repertuaridan munosib joy oldi. "Turon" teatr truppasi Zafariyning uchta bir pardali "Tilak", "Yomon o'g'il", "Rahmli shogird" pyesalarini bir spektakl shaklida sahnalashtirishdi. Bu uchta pyesa farzand tarbiyasiga bag'ishlangan davlat teatri sahnasidagi birinchi spektakl edi. Natijada 1918-1920-yillarda Toshkent shahridagi turli maktablar qoshida havaskor teatr truppalari va to'garaklari paydo bo'lib, bola tarbiyasi bilan bog'liq masalalar sahnalashtirila boshladi. Maorif xalq komissarligi va matbuot bolalar tarbiyasi, xususan, teatr davrning muhim muammosi ekanini o'rtaga qo'ydi. Shuning uchun ham, "Turon" truppasi bolalar uchun sahnalashtirilgan spektakllar qo'yishga kirishdi.

G'ulom Zafariyning o'z asarlarida bolalarni ilmga, erkka, go'zal axloqli bo'lishga, beg'uborlikka, samimiy do'stlikka, hayotni sevishtirishga dav'at etadi. Ona tabiatni sevishtirishga, asrab-avaylashga chorladi. Bolalarni hech qachon yovuzlik g'alaba qila olmasligiga, ezgulik, oliyanoblik, yaxshilik doimo qahr, zulm, ma'rifatsizlik, yomonlik ustidan zafar qozonishga ishontirdi.

Nigora XOLMUMINOVA,
Tahririyat va nashriyot
bo'limi xodimi

MUMTOZ ADABIYOTDA AYOL TIMSOLI

Sharq mumtoz adabiyoti o'zining badiiy boyligi, falsafiy teranligi va inson ruhiyatini yuksak darajada tasvirlagani bilan ajralib turadi. Ushbu adabiy merosda ayol obrazi alohida badiiy-es-tetik va falsafiy vazifani bajaradi. Ayol timsoli turli shakllarda – yor, ona, ma'shuqa, ma'naviy poklik, iymon ramzi sifatida namoyon bo'lib, u jamiyatning axloqiy me'yorlari, diniy-falsafiy qarashlari hamda estetik idealni ifodalaydi.

Mumtoz adabiyot vakillarining har biri ijodida ayol timsolini uchramiz. Sharqona qadriyatlarga mos ravishda ayol va qizlarimiz yuksak darajada madh etilib, eng go'zal sifatlar bilan sifatlangan. Ul-arga bo'lgan hurmat qadriyat darajasida qadrlangan. Masalan, Alisher Navoiy g'azallarida yor obrazi in-soniy go'zallikning eng oliy namunasi bo'lib, uning tas-viri tashbeh, istiora va mubolag'a kabi tasviriy san'at vositalari orqali badiiy mukammallikka yetkazilgan. Navoiy uchun yor husni, nafaqat, jismoniy go'zallik, balki ruhiy komillikning ham timsolidir. Bu holat mum-toz she'riyatdagi estetik idealning shakllanishida ayol timsolining beqiyos o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Shoirning bir baytida:

**Yuzung husniga qiyos qilsa quyosh, sharmindadir,
Ko'ringach qomatingni sarv ham ozor chekindadir.**

Bu misralarda yor husni tabiat go'zalliklari bilan qiyoslanadi, ammo ular ham yor oldida ojiz bo'lib qoladi. Bu esa, ayolning estetik ideal darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. A.Navoiy ijodida Ayol – Alloh obrazi tarso, arman yoxud arab qizlari ko'ri-nishida namoyon bo'ladi va oshiqni komillik sari yetak-laydi.

**Ishqi komil elni yo Farhod, yo Majnun qilib,
Gar erur mashuqi yoxud Armani, yoxud arab.**

Yana bir g'azalida,
**Tishlabki soching o'rding, ochqonda parishon qil,
Ofoq savodinda jon royihasin butrot.**

Mahbuba sochlarini o'rib, yuzini ochganda minglab oshiq-larning yuragini parcha-parcha qilib yuborishga

qodir. O'rilgan uzun soch, oppoq yuz, kelishgan qo-mat, yarashgan libos, har qanday kishilarni, hattoki ofoqlarni ham aqlidan ozdirishga, diniy va dunyoviy amallarini bajarishda yo'ldan adashishiga sababchi bo'ladi.

Fuzuliy esa "Layli va Majnun" dostonida Layli obra-zini ilohiy muhabbatning eng yuksak cho'qqisi sifatida tasvirlaydi:

**Majnun ko'ngli Laylisiz bir nafas topmas qaror,
Har nafas o'rtar bu ishq otashida jonu jigar.**

Bu baytda Majnun – oshiq, Layli – ma'shuqa. Maj-nun Laylisiz bir daqiqa ham yashay olmagani kabi, Layli ham Majnunsiz bir daqiqa yashay olmaydi. Ikki qalb bir-biriga oshufta. Muhabbati shu darajada kuch-lik, ishqining otashidan jigari pora-pora. Nayinki, Al-lohning jamolini bandasi ko'rolmagani kabi Majnun ham Layli jamoliga mushtoq. Majnun ilohiy kamolot darajasiga yetishgan tipik obrazdir.

Bunday qarashlar Mavlono Jaloliddin Rumiy asar-larida ham tez-tez uchrab turadi.

**Ayol Alloh nuri, oddiy janonmas,
Yaratur, yaralgan oshufta jonmas.**

Baytda ayol yaralgan jon emas, balki yaratuvchi ekanligi oshkora tan olingan. Diniy ma'lumotlarga ko'ra, Alloh dunyoni yaratayotgan paytda eng ko'p go'zallikni ayolga baxshida qilgan ekan. Shuning uchun ham, Uni u yaratgan, boshqa shakllardan ko'ra ayol timsolida ko'rish mukammalroqdir.

Adabiyot – timsol va ramzlarga asoslanadi. Biron narsaning aynan o'zini keltirgandan ko'ra, uni tegishli

belgi-xususiyatlar orqali ifodalash kitobxonga zavq-shavq, ko'tarinki kayfiyat, ruhiy xotirjamlik be-radi. Mumtoz adabiyotda Allohni ayol obrazi orqali ifo-dalash an'anaga aylangan. Ayniqsa, tasavvuf adabi-yoti shu tamoyilga asoslanadi.

Islom olamida eng katta hurmatga loyiq zot turmush qurgan ayol, ya'ni ona hisoblanadi. Bu Payg'ambari-mizning "Jannat onalar oyog'i ostidadir", degan hadisi shariflarida yaqqol bayon etilgan. Muhammad (s.a.v) yana shunday degan ekanlar: "Agar Allohdan boshqa nimarsaga ham sajda qilishga ruhsat etilganda, ayollar o'z erlariga sajda qilsinlar, degan bo'lardim". Bu fikrlar ayol va erlarning tabaqalanishiga olib kelmaydi. Aksin-cha, er va ayoldan tashkil topgan oilaning mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi.

Bizga ma'lumki, ayol va bahor bir-birini to'ldiru-vchi, bir-biri bilan husn talashuvchi juftlik. Bahorni o'ziga oro bergan go'zal qiz-juvonlar bezashadi, ayolni esa bahor. Ayni bahor faslida Ayol o'zining bor go'zalligini namoyish etadi. Shu boisdan ham Umar Hayyom:

Bahor ayyomida go'zal parizod,

Bir kosa may berib, dilim etsa shod...

deya bahor faslida "go'zal parizod", ya'ni Alloh shoir qalbidagi ishqni olovlantirib, ilohiy sifatlarni junbushga keltirishini so'raydi. Ishqni kuchaytiruvchi vosita bu – may. Tasavvuf adabiyotida may obraziga alohida e'ti-bor qaratilgan. Maydan no'sh qilganida inson sarxush bo'lgani kabi, ilohiy ishqdan sarxush bo'lgan solih bu-tun dunyoni unutadi, qalban va ruhan Yaratgan bilan bog'lanadi. Bahordanda go'zal ma'shuqasining jamo-lini ko'rishga muvaffaq bo'ladi.

Mashrab ijodida quyidagicha misralarga duch kelamiz:

**Meni davron bukun dard-u alamga muftalo qildi,
Jafajo' nozaninlar birla yor-u oshno qildi.**

Allohni qalbiga jo qilgan insonlar bu dunyodagi "no-zanin"lar bilan aysh-ishrat qilishi aqlga sig'maydigan tushuncha. Yurakka dard, ya'ni ishqni berish, shu ishq olovida jizg'anak qilib kuydirish – Alloh ishi. Bunday holatda solih o'ziga yor-u do'st axtaradi. Tabiiyki, dard-kashi "nozanin", ya'ni Yaratganning o'zidir.

Mumtoz adabiyotda ayol timsoli ko'p qirralli, murakkab, teran badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy mazmunga ega. U go'zallik va muhabbat manbai, sadoqat va sabr timsoli, ruhiy komillikka eltuvchi vosita sifatida talqin etilgan. Shu orqali mumtoz adabiyotimiz ayolning jamiyatdagi o'rnini yuksak qadrlab, uni ma'naviy va ilohiy kamolot ramziga aylantirgan. Demak, sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan ayol obrazi nafaqat o'z davrining ijti-moiy-ma'naviy qarashlarini aks ettiradi, balki bu-gungi kun uchun ham ahamiyatli bo'lib, insonni sadoqat, vafo, muhabbat va ma'naviy poklikka ye-taklaydi. Shuning uchun ham, ayol obrazi mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham o'z qadr-qimmatiga ega.

SAN'AT XALQ ICHIDA

San'at uzoq yillar davomida "devorlar" ichida yashadi. Sahnalarda namoyon bo'ldi, zallarda tinglandi, galereyalarda tomosha qilindi, ammo zamon o'zgardi. Endi san'at xalqqa o'zi bormoqda. Deyarli har bir yurtimiz fuqarosi guvohi bo'layotgan "Ko'cha san'ati va musiqasi" loyihasi – aynan shunday xalqparvar, yangicha fikrlangan, madaniy harakatdir.

Bugun O'zbekistonning eng gav-jum ko'chalarida, eng tarixiy maydon-larida, sayyohlar va aholi to'planadi-gan hududlarida san'at jonlanmoqda. U ohang bo'lib quloqqa kiradi, raqs bo'lib ko'z oldida jilva qiladi, rang bo'lib yurakni to'lqinlantiradi, so'z bo'lib ongni

uyg'otadi. Bu – shunchaki ko'ngilochar loyiha emas. Ushbu loyiha san'atni ha-yotga qaytarish, uni jamiyatning o'zi bi-lan hamnafas qilish harakati bo'lib, millat yuragidan joy olgan madaniyatni bugun-ning nafasida, xalq orasida, ochiq os-monda tarannum etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan PQ-406-sonli qarori asosida boshlangan "Ko'cha san'ati va mu-siqasi" loyihasi 2024-yil 1-apreldan e'tiboran butun mamlakat bo'ylab hayotga tatbiq etildi.

Sabina JUMAYEVA,
Madaniyat va san'at
sohasi menejmenti
yo'nalishi 2-bosqich
magistranti



Davomi 4-betda ➡



IJTIMOIIY AXLOQ VA BUGUNGI MEDIAOLAM

Zamonaviy hayotimizning asosini tashkil qilayotgan mediamakon bugungi kunda yanada ommalashib, rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy medianing afzallik va noafzalliklarini tushunish, raqamli savodxonlikni oshirish orqali biz jamiyat a'zolarining raqamli muhitda xavfsiz va axloqiy tarzda harakat qilishlariga imkon yaratamiz. Ijtimoiy davlat qurish yo'lidan yurar ekanmiz, jamiyatimiz a'zolarining ijtimoiy axloqini yuksaltirish birlamchi vazifalardan biridir.

O'zbekiston respublikasi yangilangan konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakatimiz ijtimoiy davlat sifatida qayd etib qo'yilgan. Ijtimoiy davlatni har tomonlama yetuk fuqarolar bilan qurish maqsadga muvofiq bo'lib, ulardan talab qilinadigan birlamchi fazilatlaridan biri bu ijtimoiy axloq hisoblanadi. Darhaqiqat, buyuk sharq mutafakkirlarining ilmiy izlanishlari ham ayni axloq masalasi edi. Shuningdek, yangi tahrirdagi davlatimiz bosh qomusida, avvalgisidan farqli o'laroq, axloq tushunchasining kiritilishi ham bunga yaqqol dalil bo'ladi.

Professor A.Mavrollov *"Ijtimoiy axloq jamiyat ijtimoiy-ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy muhitini sog'lomlashtirib, kishilarni umummilliy maqsadlarni bajarishga safarbar etadi. Kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni mu-*

vofiqlashtirish, jamiyat azolari amaliy faoliyatini sog'lom, insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'grilgan qadriyatlar bilan bezaydigan kuch ham ijtimoiy axloqdir", deb ta'rif beradi.

Zamonaviy mediamakonning ijtimoiy axloqqa tasiri yuzasidan fikrlarimizni keltirib o'tadigan bo'lsak, birinchi navbatda mediamakonda taqdim etilayotgan axborotlar nimalardan iboratligiga etibor berish lozim. Juda katta masshtabdagi axborotga egalik qiluvchi bu ombor asoslanmagan, tasdiqlanmagan, faqatgina shov-shuv uchun xizmat qiladigan soxta axborotlardan ham holi emas, albatta. Bugungi zamonaviy media ijtimoiy axloqning barcha qirralarini, xususan rivojlanishi yoxud inqirozga uchrash jarayonlarini tezlashtirib bermoqda.

Chingiz Aytmatov shunday yozadi: *"Tuya terisini odamning taqir boshiga*

kiydirmoq shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia". Shuningdek, shaxsning e'tiqodi, axloqiy darajasi va bugungacha olgan ilm-u tajribasi kabi individual tafovutlardan kelib chiqib, ijtimoiy medianing axloqqa tasiri turlicha bo'ladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ongiga singdirilayotgan mafkuraning real hayotga ko'chib ulgurani bugungi kunda axloqsizlikning "yangi axloq" sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarini olim-u fuzalodek donishmand qilib ko'rsatadigan "ijtimoiy tarmoq fuqarosi"ning asl yuzi ochilgach, boshqa toifa "tarmoq fuqarolari" va hafsalasi pir bo'lgan kuzatuvchilar orasida "o'zini boricha ko'rsatish" tendensiyasi avj olayotganini ko'rish mumkin. Bu o'z navbatida haqiqatdan ham madaniyatli kishilarni – yasama olifto, axloqini boshqara olmaydigan, nafsini yenga olmaydigan, madaniyatsizlik va axloqsizlikni targ'ib qilayotganlarni esa, "o'zini boricha ko'rsatayotgan qahramon" sifatida talqin etilishiga sabab bo'lmoqda.

"Ommaviy madaniyat" namunalari mediamahsulot sifatida o'ta arzon narxlarda taklif qilinayotgani va tabiiy ravishda iste'mol darajasining oshib borishi natijasida jamiyatda axloqsizlikning barcha ko'rinishlariga moslashuv paydo bo'layotgani hamda ularning normallashtirishga olib kelayotganini sezish mumkin.

Turli jamoat joylarida, oila davrasida, umuman olganda ma'lum faoliyat yuritadigan har qanday maskanda mobil qurilmalarga boglanib qolish kishilarda ijtimoiy e'tiborning kamayib, loqaydlikning avj olishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy etibor jamiyat hayotini farovonlashtirishga xizmat qiladigan asosiy omil ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, zamonaviy mediamakonga qaramlik rivojlangan jamiyat yaratish uchun to'siq hisoblanadi. Ijtimoiy axloq masalasini har qachongidan muhimligini bugun bizga dunyoda keng tarqalayotgan ommaviy madaniyat, gedonizm, egoizm, kosmopolitizm kabilarning jiddiy havf solib turgani isbotlamoqda. Ularning kirib kelishiga xizmat qilayotgan globallashtirish jarayonlari, xususan cheksiz internet va mediaolamni rad eta olmasligimiz ravshan ekan, ularga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilish barcha qatori, biz madaniyatshunoslarning birlamchi vazifalarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashtirish jarayoni ijtimoiy media kabi texnologiyalarning yanada ommalashishiga olib kelayotgan ekan, insonning paleolit davridayoq shakllangan axloqiy tuyg'ulari va bu texnologiyalar o'rtasidagi munosabat endi faqat o'sishda davom etadi. Real va tarmoqdagi hayotning qorishuvi oqibatlari, o'z navbatida, ijtimoiy tarmoqlar ham shaxs axloqini shakllantirishdagi ta'sirini chuqurroq o'rganish turli tadqiqotlar, kengroq masshtabdagi ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazishni talab qiladi.

SAN'AT XALQ ICHIDA

◀ Boshlanishi 3- betda

Ushbu loyihadan ko'zlangan maqsad: xalqning madaniy hayotini boyitish, sayyohlar oqimini ko'paytirish, ijodkorlarga yangi sahna, yangi imkon yaratishdan iboratdir.

Bugun Toshkentning Sayilgoh ko'chasidan boshlab, Samarqandning Registon maydonigacha, Urganch, Qo'qon, Shahrisabz, Termiz va boshqa o'nlab shaharlarimizda san'at xalq orasiga chiqdi. Har bir viloyatda tanlab olingan maydon – milliy ruh va zamonaviy nafas uyg'unlashgan ochiq sahnadir.

"San'atda chegara yo'q", deb bejiz aytishmagan. Loyihada ming nafardan ziyod ijodkorlar ishtirok etmoqdalar. Ular raqs san'ati, musiqiy ijro, tasviriy va amaliy san'at, teatr, sirk, qo'shiqchilik kabi yo'nalishlarda o'z salohiyatini namoyish etmoqdalar. Shuningdek, mazkur loyiha orqali yurtimizda iste'dodli yoshlar, mahoratli san'atkorlar nechog'lik ko'pligini namoyon bo'lmoqda. Asosiysi, bu sahna – tanlovsiz. Kimdadir rasm, kimdadir so'z, kimdadir ovoz, kimdadir harakat orqali his qilish qobiliyati bor va endi ularni eshitadigan, ko'radigan, qadrlaydigan xalqning o'zi sahnani to'ldirib turibdi. Maxsus ishlab chiqilgan streetart.uz platformasi orqali har bir ishtirokchi yuz ballik tizim asosida baholanmoqda. Baholashda esa, eng muhim hakam – tomoshabinlarning o'zidir. U ovoz beradi, baho qo'yadi, ijodkorni rag'batlantiradi. Endi

iste'dod o'z bahosini faqat hakamlar hay'atidan emas, balki xalqdan oladi. Xalq e'tirofi esa, eng yuksak mukofotdir.

Yurtimiz bo'ylab har chorakda eng faol ishtirokchilar moddiy mukofot bilan taqdirlanmoqda. Bu oddiy mukofot emas, balki ijodkorlik qadri, san'atning jamiyatdagi o'rnining e'tirofidir. Har bir faol ishtirokchi eng kam ish haqining 20 baravarigacha bo'lgan miqdorda rag'batlantiriladi. Ammo bu loyihaning eng katta mukofoti – ijodkorning san'atga bo'lgan ishonchini yuksaltirishdir.

"Ko'cha san'ati va musiqasi" – bu mahalliy tashabbus bo'lishiga qaramay, xalqaro miqyosda qadrlanadigan loyiha darajasida ko'tarilish sari dadil qadam tashlamoqda. Angliya, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarda bu yo'nalish allaqachon ommalashgan. Endi O'zbekiston ham o'z milliy ruhini, san'atdagi o'ziga xos uslubini ko'cha orqali jahon sahnasiga olib chiqmoqda.



San'at – o'z mohiyatini saqlagan holda xalq bilan birga yashamoqda. "Ko'cha san'ati va musiqasi" loyihasi O'zbekistonda ijodiy fikr, estetik tarbiya, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, madaniyatni targ'ib qilish yo'lida yangi davrni boshlab berdi. Bugun ko'chada, ertangi sahna qad rostlamoqda. Ushbu loyiha orqali ertangi yulduzlar kashf etilmoqda. Endilikda, har bir yurtida, har bir ko'chada, har bir yurakda san'at nafas olmoqda. Zero, san'at shunchaki eshitilmayapti, balki yashayapti.



Madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar

Bugungi kunda madaniyat muassasalarini boshqarishda, innovatsion yondashuvlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli iqtisodiyot va yangi texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda madaniyat sohasini boshqarish jarayoni ham zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko'rib chiqilmoqda. Chunki madaniyat muassasalari faqatgina an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni bajarib qolmay, balki ular jamiyatning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, aholi turmush madaniyatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish kabi ko'p qirrali funksiyalarni bajaradi. Shu bois, ularni samarali boshqarish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim zaruratga aylanmoqda.

Innovatsion boshqaruv birinchi navbatda madaniyat muassasalari faoliyatiga yangi texnologiyalarni, zamonaviy menejment tamoyillar, kreativ g'oyalar va strategik yondashuvlarni tatbiq etishni anglatadi. An'anaviy boshqaruv tizimida faqat tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, innovatsion boshqaruv tizimida ijodiy muhitni shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish, madaniy faoliyatni bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish va muassasalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishni, jumladan, onlayn chiptalar savdosi, masofaviy xizmatlar, virtual ko'rgazmalar, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar orqali madaniy xizmatlarni aholiga tezkor yetkazib berishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridan buyon madaniyat va san'at sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi va Prezident farmonlari hamda qarorlarida madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish, ularning faoliyatini raqamlashtirish va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni zamon talablari darajasiga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni talab qilmoqda. Tahliliy jihatdan qaralganda, O'zbekistonda madaniyat

muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning birinchi yo'nalishi – raqamli texnologiyalarni joriy etishdir.

Bugungi kunda kutubxonalar elektron katalog va fondlar bazasiga ega bo'lib, foydalanuvchilarga masofadan turib xizmat ko'rsatmoqda. Muzeylarda virtual ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda, teatr va konsert dasturlari onlayn translyatsiya qilinmoqda. Bular aholining keng qatlamlariga madaniy boyliklardan foydalanish imkoniyatini beradi va O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlaydi. Ikkinchi muhim yo'nalish – boshqaruvda zamonaviy menejment uslublaridan foydalanishdir.

O'zbekistonda madaniyat muassasalari faoliyatini rejalashtirish va moliyalashtirish tizimi asta-sekin diversifikatsiya qilinmoqda. Davlat xususiy sheriklik asosida loyihalar amalga oshirilayotgani, homiylik va grant tizimining yo'lga qo'yilishi muassasalarni iqtisodiy mustaqillikka olib kelmoqda. Masalan, ayrim teatr va san'at saroylari homiylar ko'magida yangi sahna uskunolari bilan ta'minlanmoqda, muzeylar esa xalqaro loyihalarda ishtirok etib, qo'shimcha mablag' jalb qilmoqda. Uchinchi yo'nalish – inson kapitalini rivojlantirishdir.

Madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'rganish, ijodiy tashabbuslarni rag'batlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda

san'at va madaniyat sohasi xodimlari uchun malaka oshirish kurslari, mahorat darslari, xalqaro amaliy seminarlar tashkil qilinmoqda. Bu esa innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim omil hisoblanadi. To'rtinchi jihat – xizmatlarning sifatini oshirish va aholining ehtiyojlariga moslashtirishdir. Shu bilan birga, yoshlar auditoriyasini jalb etish uchun zamonaviy madaniyat markazlari, media studiyalar, ijodiy laboratoriyalar tashkil qilinmoqda. Xalqaro tajriba bilan qiyoslanganda, O'zbekiston hali ayrim sohalarda orqada qolayotgan bo'lsa-da, oxirgi yillarda boshlangan islohotlar tezkor rivojlanish imkonini bermoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkentda madaniy meros obyektlarini qayta tiklash, ularni turizm bilan integratsiyalash, raqamli katalog va gid tizimlarini yaratish xalqaro darajadagi ilg'or tajribalarni joriy etish yo'lidagi muhim qadamdir. Tahlil natijasida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar quyidagi natijalarni bermoqda: muassasalarning raqobatbardoshligi oshmoqda, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda, milliy madaniyat va san'at jahon miqyosida keng targ'ib qilinmoqda.

Madaniyat muassasalarini innovatsion boshqarishda menejmentning ilg'or uslublarini qo'llash alohida o'rin tutadi. Strategik rejalashtirish, marketing siyosatini shakllantirish, inson resurslarini samarali boshqarish, auditoriya ehtiyojlarini o'rganish va ularga mos xizmat turlarini yaratish muassasalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Masalan, xorijiy davlatlarda teatr, muzey va kutubxonalar faoliyatida "au-

Xulosa qilib aytganda, madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, ularning samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini yanada kuchaytirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va milliy amaliyotga keng tatbiq etish madaniyat sohasi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.



Nargiza SHODMONOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ditoriya bilan doimiy muloqot" tamoyili keng qo'llanilib, ular onlayn platformalar orqali tashrif buyuruvchilarning fikrlarini muntazam o'rganib boradi. Bu tajribani milliy amaliyotda ham joriy etish madaniyat muassasalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlarning muhim jihatlaridan yana biri – davlat xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni amalga oshirishdir. Bu jarayon madaniyat muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi, yangi investitsiyalar jalb qilish imkonini beradi hamda xizmatlarning sifatini oshiradi. Shu bilan birga, kreativ industriyalar bilan hamkorlik qilish, turizm sohasi bilan integratsiyalashuv ham madaniyat muassasalarining iqtisodiy salohiyatini kengaytiradi. Innovatsion boshqaruv madaniyat muassasalarida ijodiy muhitni kuchaytirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Xodimlarning malakasini oshirish, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali madaniy muhit yanada rivojlanadi. Shu jihatdan inson kapitalini rivojlantirish innovatsion boshqaruvning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar ularning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda aholining madaniy ehtiyojlari xilma-xil bo'lib, ular sifatli, tezkor va qulay xizmatlarni talab qilmoqda. Shunday sharoitda innovatsion xizmatlarni joriy etgan muassasalar jamiyatda yanada ommalashadi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Hikmat

Anqoning urug'i bormi?

Sharq mifologiyasidagi qiziq obrazlardan yana biri – Anqo qushi. Nega biror noyob yoki umuman yo'q narsa haqida gap ketganda, "Anqoning urug'i" yoki "Anqoning tuxumi" iborasi ishlatiladi?

Anqo – boshi odam qiyofasida, bo'yni va qanotlari uzun qush. Rivoyatlarga ko'ra, odam qadami tegmagan orollarda yasharkan. Ba'zi mumtoz

manbalarda Anqoni Qof tog'ida yashovchi Simurg' sifatida ta'riflangan.

Anqo boshqa qushlardek tuxum qo'yib emas, birdaniga tirik jo'ja tuqqani uchun noyob narsalarga nisbatan "Anqoning tuxumi (yoki urug'i)" deb ta'rif beriladi. Bu qush – Irfon falsafasida komil insonning timsoli hisoblangan.



Nilufar DO'STOVA,
"Kutubxona – axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi



Elyor NAZAROV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish" (sirtqi) ta'lim
yo'nalishi 4-bosqich talabasi



Gulsevar ERGASHEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Vatan

Yurtim bugun sening ko'rkam har yog'ing,
Taraladi shodlik nurlari sendan,
G'ururim misoli mag'rur bayrog'ing,
Bugun mendan baxtli inson yo'q aslo.

Har qadamda chaman onajon vatan,
Giyohingda mehr, hurlik tafti bor,
Istiqbolim, borim, nurli ostonam,
Senda orzu, mehrim gashti bor.

Moviy osmon uzra uchar laylaklar,
Vatan hurligining timsolidir bu,
Moviy samo uzra jaranglar navo,
Ozodlik qo'shig'i ko'ngilga davo.

Vatan seni jondan sevaman juda,
Yuzlaringda mehr, vafo nuri bor,
Sendan ortiq biror topolmam hech ham,
Sensiz ko'zlarimga dunyo bo'lar tor.

Oppoq tonglar vatan senda otadi,
Hur diyorim, nurli ostonam mening,
Ulug' shomlar har kun senda botadi,
Yashnagan diyorim baxtimsan mening.

Munis onajonim mehriday jo'shqin,
Qadr senda vatan, senda o'tmish bor,
Har kimga iftixor g'ururla boqqan,
Qaddim ona vatan senda xokisor.

Ishon, alshmasman seni hech kimga,
Mudom avliyo bobom ruhlari kezar,
Aslo diyonatim egolmas hech kim,
Bu turishda vatan sendan kim bezar.

Yiroqda sog'inichga to'lganda bag'rim,
Ulug'im sen tomon shosharman vatan,
Seni qumsab har on seni o'ylarman,
Har on g'urur ila yashnar jonu-tan.

Gulla, yashna mening gulagan go'sham,
Xonish aylasinlar senda bulbullar,
Bag'ring uzra go'zal ochilsin mudom,
Har dam eng ko'rkam va fusunkor gullar.

Yoshligim

Alam, anduhlarim o'ldirib,
Yuragimga orzu to'ldirib,
Bolalardek shodon kuldirib,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Eng navqiron, o'n sakkiz yoshim,
Muhabbatdan aylangan boshim,
Qaylardasan, ey qalamqoshim,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Sen umrning nurli hiloli,
Ilk sevgisan – armon visoli,
Qishda kelgan bahor misoli,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Ishq gulobin totgan bo'lardim,
Baxt qo'shig'in aytgan bo'lardim,
Men o'zimga qaytgan bo'lardim,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Asrab, jonim fidolarimni,
Tinglab ko'ngil sadolarimni,
Yuvarim men xatolarimni,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Olib, sinovlarning tamg'asin,
Qaytarsayding ortga hammasin,
Kengaytirib do'stlar davrasin,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Kelmadi bu boshga nimalar,
Bag'rim sog'inchlarda qiynalar,
Qaytganidek yurtga turnalar,
Qaytib kelsang edi yoshligim!

Gar yashirsang go'zal bag'ringga,
Ko'nar edim barcha shartingga,
Yetmaganman afsus qadringga,
Qaytib kelsang edi yoshligim!



Umrin bahori

Ulgurmay qolganim umrim bahori,
Aytolmay qolganim qalbim armoni,
Yaxshi-yu, yomonni bilmay qolganim,
Shu sabab zulmatda hayot nahori.

Kuzlardan bahorni izlamadim hech,
G'iybat-u, tuhmatni sog'inmadim hech,
Insonni yomon, deb atamadim hech,
Yaxshi deyishga ham bo'ldi endi kech.

Ko'zidan sezaman ko'rolmaslarni,
So'zlardan bilaman yolg'onlarini,
Yo'lidan yuraman yaxshilarini,
So'ziga ishonib, baxshilarini.

Mayliga hammasi bo'lsinlar omon,
Ammo chaqirmanglar oxirgi zamon.
Hayotga talabim birgina hamon,
Barchasi bor bo'lsin yaxshi va yomon.

Roziya
RAVSHANBEKOVA,
"San'at jurnalistikasi"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi



O'zingga ishon

Qalam tutsang qo'lingga,
Yozgin faqat haqiqat,
Tutib turar dunyoda,
O'zingdagi matonat.

Yurtning ishonchi bo'lg'in,
O'zbek nomini oqla,
Sendan kutadi vatan,
Uning shonini yoqla.

Haqiqatning qo'lin tut,
Rost yasha, to'g'ri gapir,
Maqsading asli shudir,
Rost yashamoq axir!

Amir Temurning XATTOT NABIRASI

Amir Temur avlodlari orasida buyuk olimlar, shoirlar, yetuk davlat arboblari ko'p yetishib chiqqan. Ular orasida mohir xattot va rassom Ibrohim Sulton nomini alohida zikr etish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, Ibrohim Sulton Shohrux Mirzoning ikkinchi o'g'li bo'lib, 1394-yil 28-avgustda hozirgi Turkiyaning Qars viloyatida tug'ilgan. U akasi Mirzo Ulug'bek bilan bir yilda, faqat boshqa ayol, To'ti Xotundan dunyoga kelgan. Bolalikda Ibrohimni Abul-Fath, Mug'iyiddin ismlari bilan ham atashgan. Milodiy 1435-yil 9-may kuni bobosi Sohibqiron Amir Temur unga shaxsan "Sulton Ibrohim" unvonini bergan.

Aftondil ERKINOV,
filologiya fanlari doktori

Manbalarga ko'ra, sohibqiron boshqa amirzodalar qatori Ibrohim Sultonning tarbiyasi, ilm olishi, adabiyot, san'at, harbiy soha, davlat ishlari-dan xabardor bo'lib voyaga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratib bergan.

Ibrohim 1407-1409-yillarda Hirotida otasining noibi bo'lib xizmat qiladi. 1414-yilda Fors viloyatini boshqarib kelgan – Iskandar sulton Sherozda isyon ko'taradi (Sheroz Fors viloyatining markazi edi). Shohrux bu isyonda muvaffaqiyat qozonadi. Fors viloyati Iskandar Sultondan tortib olingach, Shohrux Mirzo uning o'rniga dastlab yaqin mulozimlaridan biri – Amir Mizrob Bahodirni tayinlamoqchi bo'ladi. Biroq, uning kutilmagan vafotidan keyin, Shohrux Mirzo 21 yoshli o'g'li Ibrohim Sultonni Fors viloyatiga hokim etib tayinlab, poytaxt Hirotga qaytadi.

Ibrohim Sulton hokimligining dastlabki yillarida Forsning sobiq hokimi Iskandar Sulton yordamida yana bir temuriy shahzoda Boyqaro Mirzo Sherozga hujum qiladi. Ibrohim Sulton qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi va Sherozni qo'ldan boy beradi. Besh oydan so'ng, 1415-yilning noyabr oyida Shohrux Mirzoning ko'magida Sheroz qayta qo'lga kiritiladi.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Shohrux Mirzo saroyida olim va fozillarni saqlagan, ta'lim va tarbiyasiga e'tibor bergan. Shuningdek, harbiy harakatlar chog'ida ham ularni o'zi bilan birga olib yurgan. Amir Temur va Shohrux singari Ibrohim Sulton ham adabiyot, san'at, musiqani yaxshi bilgan va bu soha vakillarining iqtidorini qadrlab, tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Aka-uka Mirzo Ulug'bek, Ibrohim Sulton va Boysung'ur Mirzolarining adabiyot va san'at asarlari yuzasidan yozishmalari ham bizgacha yetib kelgan. Rassom va xattot sifatida nom qozongan. Ibrohim Sulton o'z davrida Sharafid-



din Ali Yazdiyga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan.

Ibrohim Sulton kitoblarga nihoyatda qiziqqan. Sherozda bir qator madrasalar bunyod etgan. Mazkur madrasalardagi bitiklarda ham uning nomini o'qish mumkin. Ibrohim Sulton 21 yil davomida, 1414-yildan 1435-yilgacha, ya'ni umrining so'ngiga qadar Fors viloyati hokimi bo'lib qoladi. U 1435-yil 3-aprelda Sheroz shahrida 41 yoshida, otasidan 12 yil avval vafot etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Ibrohim Sulton Qur'oni Karimni o'z qo'li bilan besh nusxada ko'chirgan. Mazkur qo'lyozmalar ayni paytda dunyoning turli muzeylari va kutubxonalarida saqlanoqda. Mazkur qo'lyozmalarining biri 1937-yilga qadar Sherozning Qur'on darvozasi tepasida, maxsus xonada saqlangan. 1937-yilda ushbu qo'lyozma Qur'on darvozasidan Sheroz shahridagi Fors muzeyiga olib kelingan va shu yerda saqlanadi.

OLIIY TA'LIM AYOL UCHUN TANLOV EMAS, ZARURAT

Tarixdan ma'lumki, yillar davomida ayolning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki tobora kuchayib kelmoqda. Ayol – oilaning bosh tayanchi bo'lib-gina qolmay, barcha ijtimoiy, ijodiy sohalar taraqqiyotida ham faol qatnashadi. Ammo bu yo'l doim ham oson kechmagan. Ayniqsa, ayollar uchun ilm o'rganish, oliy ta'limda tahsil olish, ko'pincha kechikkan orzular, hayot sinovlari, oila va jamiyat bosimlari bilan muammolar girdobiga cho'kkan va yana yuzaga qalqib, o'z muvozanatini saqlashga harakat qilganlar. Zero, ta'lim – ayolga kuch, ishonch va kelesakda katta imkoniyatlar bag'ishlaydi.

Ilm bilan qurollangan ayol o'z hayotining bosh qahramoni bo'lib, to'laqonli yashashga zamin yaratadi. U faqat farzandlarini emas, balki butun jamiyatni tarbiyalaydi, o'z atrofini ilm, ma'rifat va ezgulik bilan to'ldiradi. Biroq oliy o'quv yurtida ta'lim olishga hamma ham bir vaqtning o'zida erisha olmaydi. Bu hislar kimlargadir armon bo'lib qoladi...

Hayotda muqaddam boshqa mas'uliyatlarni zimmasiga olgan, ilm olishni orqaga surgan ayollar oz emas. Ammo ular orasida kech bo'lsa-da, ilm eshigini taqillatganlar bizga saboq, ilhom va kuch manbai bo'lib, inson naqadar irodali ekanligidan dalolat beradi.

Talabalik kunlarimning birida, Ra'no ismli opa bilan tanishib qoldim. Opa, Qashqadaryodan kelgan bo'lib, yoshlari o'ttiz besh yoshdan katta ekan. Ammo u o'zini bizdek yosh his qilardi, qalbi yaxshilik quyoshidek porlab turardi. Shu bilan birga, hayotiy tajribasi, keng dunyoqarashlari bilan guruhdagi boshqa qizlar bilan ham fikr almashdi. Yoshi bizdan katta bo'lsada, bilimga tashnalligi bililib turardi. Ra'no opa yoshligida kollejni tamomlab, qismat ekan mehnat bozorida rizq tera boshlagan. Hayot unga orom emas, ish va mas'uliyat yukini orttirgan edi...

U laborantlikdan boshlagan ish faoliyatini keyinchalik kotiba, kadrlar

bo'limida yordamchi, kutubxonachi kabi lavozimlarda davom ettirgan. Har bir ishda vijdon va fidoyilik bilan xizmat qilgan. Ammo birgina diplom yo'qligi, uning o'z sohasida barqaror ishlashi uchun pand berardi. Afsuski, bu ijtimoiy talab bo'lganligi sababli, ish faoliyatini yakunlashga majbur bo'ladi. Opa shunday xotira bitiklarini biz bilan bo'lishdi: "Men ishimni sevardim, lekin huquqiy jihatdan o'zimni himoya qila olmadim. Oliy ma'lumotga ega emasligim, qo'limda diplom yo'qligi uchun..."

Ra'no opaning muttasil hayot zarbalarida ham matonat bilan turishi, aziz boshning toshlarga urilishi haqidagi fikri, meni yanada chuqur ilm o'rganishga chorladi. Ilm uchun yoshning chegarasi yo'q, Ra'no opa hayotda ko'p narsani o'rgangan, tajriba orttirgan, ammo baribir ilmga bo'lgan chanqoqligini unutmagan. Bugun u biz bilan birga darslarda ishtirok etadi, darsdan keyin esa kutubxonaga borib yana dars qiladi. Uning ruhiyati kuchli, maqsadi aniq. Uning har bir qadami bizga shuni o'rgatmoqda: ilm olishda yosh to'siq emas, iroda yetakchi bo'lishi kerak.

Ko'pchilik ayol kishi uyda o'tirishi kerak, ayol kishining ishi uyda, bola tarbiyasi bilan bo'lishi kerak, – degan fikr bildirishadi. To'g'ri, yuqoridagi ishlar ayol kishining asosiy vazifalari, lekin shularni ayol kishi qaysi bilimlariga tayangan holda bajaradi? Har bir olingan bilim hayotdagi muammoni yoki qiyinchilikni yengishda yordam beradi. Ilmli ayol kelajak avlodni tarbiyasida



Mashhura OLIMOVA,
"Kutubxona-axborot
faoliyati" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

faol ishtirok etadi. U farzandlarining ongli va ma'naviy boy shaxs sifatida yetishishida muhim ro'l o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar shuni ko'rsatmoqdaki, endi har bir ayol ilm olishi, o'z kasbini egallashi, hayotda faol bo'lishi uchun to'siqlardan xoli. Ayol bilimli bo'lsa, farzandlarini barkamol shaxs bo'lib yetishishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Ayol o'qigan bo'lsa, kelajak avlod bilimli, mard va iymonli bo'ladi. Zotan, oliy ta'lim ayol uchun tanlov emas, zarurat. Biz talabalardan esa, ilm olish yo'lida sabr, g'ayrat, iroda va mas'uliyat talab etiladi.

Kutilmagan sovg'a

Mitti hikoya

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Yomg'ir tomchilari qizaloqning yuzlarini yuvdi, bekatda qolib ketgan odamlar shamsiyalari bilan yomg'irdan pana qilib, avtobus kutishar, qizaloqning esa soyaboni ham yo'q edi. Unga na birorta inson mehribonlik ko'rsatar, na birorta odam ko'z qirini tashlab qo'yardi. Avtobus keldi, barcha yo'lovchilar bir zum o'tmasdan ulov ichkarisiga yo'naldi. Bittagina shu qizaloq – Mohira chiqmadi. Aftidan, u dadasining ishdan qaytishini shu bekatda kutdi. Ust-boshi yomg'irda qolgan mushukdek sirqiraydi...

Mohiraning dadasi keldi. Qizaloq otasining bag'riga otildi.

– Mohiram meni kechir, yomg'irda seni kuttirib qo'ydim, bilasanmi? Bugun senga bir sovg'am bor. Qani yuraqol ketdik.

Ota o'zini shamollaganini sezdirmaslikka urinar-kan, boshida rangi o'chgan eski qalpog'ini muzlagan qo'llari bilan olib bir ikki qoqdi-yu yana soch ustiga bostirgancha qizalog'ining jajji qo'lchalari-dan ushladi, so'ng ko'p qavatli uylar orasidan o'tib, tor ko'cha bo'ylab yurib ketdi. Dastavval bog'cha, maktab yonidan, keyin qishki kiyim sotiladigan do'konlar yonidan o'tdilar. Mohira yangi yilda o'zini malikalardek his qilmoqchi edi, bunga fursat qachon topilishini bilmay biroz o'ngaysizlangancha dadasiga ma'yus tikildi, so'ng yomg'ir tomchilariga xayoli qo'shildi-da, ayollarning palto, sharflarini sotadigan magazin oldiga yugurib borib oyna ortida bir zum qilt etmay turdi, keyin dadasiga yuzlandi. "Menga anavi oq sharfni olib bering, iltimos jon dada! Olib beraqoling", deya tixirlik qildi. Dadasi cho'ntagini kavlab, ozgina qolgan

pulini sanadi va yetmasligini bilib, cho'ntagiga qaytarib solib qo'ydi va qizalog'iga: ertaga olib bera-man, maktabdan qaytganingda, albatta shu oppoq sharfni olamiz, ho'pmi? Qizalog'im, aytdim-ku sovg'am bor deb, hozir senga bir narsalar olib bera-man. Qani yuraqol. Mohira va uning dadasi yo'l-ni-ni nargi betida joylashgan kafega kirishdi, birgalashib ovqatlanishdi. Qizaloq buyurgan barcha shirinliklar, uning oldida muhayyo bo'ldi. Mohira-ni-ni yuzlariga tabassum yugurdi, bu jilmayishlar dadasidan minnatdor ekanligini bildirardi.

Ertasi kuni tongda Mohiraning yostig'i ostida o'sha oppoq, momiq sharf va bir dasta qizil lolalar, ma-likalar kiyib raqsga tushadigan oq kofta va qora tufli paydo bo'ldi. Bu xursandchilikdan Mohiraning boshi osmonga yetdi va dadasining yoniga yugurdi. Ammo dadasi ishga ketib bo'lgan, stol ustida yozilgan quyi-dagi maktubga ko'zi tushdi.

"Mening go'zal malikam, oqila, suyukli qizim se-ning quvonchingni, baxtingni ko'rish, biz ota-onang uchun eng katta sovg'adir. Seni har lahza sog'inib qoluvchi dadang".



Unutilmas lahzalar. Ustoz va shogird.
Shukur Burxonov va Erkin Komilov

Izzatillo OLIMOV,
"Kutubxona – axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

O'zbekiston – Pokiston:
mushtarak madaniy meros

Mamlakatimizda nafaqat O'zbekistonda, global tinchlikni xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash uchun kurashi jahon hamjamiyatining ham e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar, hamkorlik, umumiy manfaatdorlik, tarixiy, madaniy va g'osiyosiy omillarga asoslangan. Ikki o'lka o'rtasidagi umumiy munosabatlar, rivojlanayotgan savdo, iqtisodiy, transport, kommunikatsiya, madaniy, gumanitar aloqalardan kelib chiqib, Toshkent fotosuratlar uyida "O'zbekiston – Pokiston: mushtarak madaniy meros" deb nomlangan fotoko'rgazma tashkil etildi.



Ekspozitsiyadan o'rin olgan fotosuratlarda islom sivilizatsiyasining buyuk merosi, islomiy me'morchilik, qo'lyozmalar, qadimiy shaharlar va buyuk al-lomalarning ilmiy merosi aks etgan.

Ko'rgazmaga qo'yilgan fotosuratlar, bu yerga kelgan san'at muxlislari, turli kasb egalari hamda yoshlarni Pokiston xalqining madaniy merosi bilan tanishtirdi. Ushbu fotoko'rgazma xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umr sarhisobi

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvon saroyida Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi o'qituvchisi Musavvar O'lmasovaning 70 yoshlik yubileyiga bag'ishlangan "Umr sarhisobi" nomli shaxsiy ko'rgazmasi tashkil qilindi.



Unda rassomning so'nggi yillarda ishlangan, mamlakatimizdagi yil fasllari, tabiat manzaralari, gullari, tarixiy me'moriy yodgorliklari o'rin olgan. Muallifning "Lolaqizg'aldoqlar", "Tog'dagi qishloq", "Tong", "Chorvoq", "Do'rmonda bahor", "Oltin kuz", "So'qoq", "Shoxizinda majmuasi", "Samarqand", "Xumson", "Eski shahar" va boshqa qator ijod namunalari san'at muxlislari qiziqish uyg'otadi.

M.O'lmasova 1955-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik o'quv yurtida, Toshkent Teatr va rassomlik institutida tahsil olgan. Respublika va xalqaro ko'rgazmalarida ijodiy ishlari bilan qatnashib kelmoqda. Shaxsiy ko'rgazmalar tashkil qilgan. U "Shuhrat" medali va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ibrat

Bir o'rtamiyona aktyor Bernard Shoudan tavsiyanoma so'rabdi. Shou yozib beribdi: "Bu aktyor Gamlet, Romeo, Ferdinand rollarida va pianino, fleyta, bilyardda o'ynaydi. Ayniqsa, oxirgisida mahorat bilan o'ynaydi".

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:
Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 29.08.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda